



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 23-sentabr

VII-14-112-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on rayon soveti ijroiya komitetining 1990-yil 20-iyuldagi 99-6/07-son qaroriga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunining 56- va 59-moddalari, “Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi, Kattaqo‘rg‘on tuman Zarqo‘rg‘on MFY Yangi qishloqda yashovchi Murodillayev Nuriddinning arizasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi VII chaqiriq o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Muradillayev Nuriddin Sharapovichning xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi raisiga turmush o‘rtog‘ining Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on rayon soveti ijroiya komitetining 1990-yil 20-iyuldagi 99-6/07-son qaroridagi 121-tartibga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risidagi bergan arizasi va unga ilova etilgan hujjatlar o‘rganib chiqilgan deb hisoblansin hamda undagi talab qanoatlantirilsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining mazkur qarori bilan Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on rayon soveti ijroiya komitetining 1990-yil 20-iyuldagi 99-6/07-son qarori ilovasidagi 121-tartib raqamiga “Murodullayeva Gulchexra” ismi sharifiga o‘zgartish kiritilib, o‘rniga “Murodillayeva Gulchexra Telmanovna” deb o‘qilsin va bu haqida Kattaqo‘rg‘on shahar davlat arxivi (B.Sirojiddinov)ga ma’lum qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish doimiy komissiya (A.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimi o‘rinbosari M.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH